

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SOBIROVA NARGIZA NUMONJONOVNA

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA NOVERBAL VOSITALARNING
MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI
(Tohir Malikning “Talvasa” va Agata Kristining “Staylsdagi sirli voqea”
(The mysterious affair at styles) asarlari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Sobirova Nargiza Numonjonovna

O‘zbek va ingliz tillarida noverbal vositalarning milliy-madaniy xususiyatlari (Tohir Malikning “Talvasa” va Agata Kristining “Staylsdagi sirli voqea” (The Mysterious Affair at Styles) asarlari misolida)3

Sobirova Nargiza Numonjonovna

National-cultural features of non-verbal means in Uzbek and English languages (in examples of Tahir Malik’s “Talvasa” and Agatha Christie’s “The Mysterious Affair at Styles”)25

Собирова Наргиза Нумонжоновна

Национально-культурные особенности невербальных средств в узбекском и английском языках (на примере произведений “Талваса” Тохира Малика и “Таинственное происшествие в Стайлзе“ (The Mysterious Affair at Styles) Агаты Кристи)47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ52

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SOBIROVA NARGIZA NUMONJONOVNA

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA NOVERBAL VOSITALARNING
MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI
(Tohir Malikning “Talvasa” va Agata Kristining “Staylsdagi sirli voqea” (The
mysterious affair at styles) asarlari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2021.1.PhD/Fil 1680 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibragimova Extiyotxon Ismailovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentalar:

Ganiyeva Dildoraxon Azizovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Saidxonov Ma'murjon Muhammedovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "22" yanvar soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (677 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "5" yanvar kuni tarqatildi.

(2026-yil "5" yanvar dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.T.Abdupattoyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

A.G'.Sabirdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab semantika hamda lingvistik faktlarga antropotsentrik nuqtayi nazardan yondashuvga e'tiborning kuchayishi tilshunoslikda lingvokulturologiya, psixolingvistika, aksiolingvistika, biolingvistika, neyrolingvistika, areal lingvistika kabi yangi sohalarining, xususan, paralingvistikaning jadal rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Tilshunoslikda noverbal muloqot va uning vositalarini o'rganish juda muhim, chunki til faqat so'zlardan iborat emas, balki ma'no imo-ishora, mimika, ohang va tana tili orqali ham ifodalanadi. So'nggi yillarda olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlar tahliliga ko'ra, paralingvistika o'zining muhim masala va muammolari bilan tilshunoslar e'tiborini alohida jalb etgan yo'nalishlardan bo'lib qolmoqda. Hozirgi jadal rivojlanayotgan davrda ingliz va o'zbek tillarida noverbal vositalarning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil etish alohida amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida mazkur sohaning o'rganish obyektiga ega bo'lgan masalalar talaygina. Xususan, ana shunday izlanishlar va tadqiqotlardan biri turli tillarda mavjud bo'lgan noverbal muloqot va uning vositalaridir. Keyingi yillarda jahon tilshunosligida kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot, turli xalqlar uchun xos bo'lgan nutqiy munosabatlar, ulardagi umumiy va o'ziga xos tomonlar, o'xshash va farqli jihatlar, aloqa-aralashuvning milliy-madaniy va umumlisoniy belgilarini o'rganishga katta qiziqish bilan qaralmoqda. Bu qiziqishlarning natijasi sifatida noverbal nutq, uning birliklari, nolisoniy nutq vaziyatlari bilan aloqador bo'lgan masalalar xususida qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Ushbu tadqiqotlarning natijalari tilshunoslikning paralingvistika, psixolingvistika va noverbal vositalarni o'rganuvchi psixologiya kabi fanlarning rivojlanishida nazariy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda turli xalqlar madaniyatini tubdan o'rganish va o'zbek madaniyatining sharqona madaniy xususiyatlarini jahon maydoniga olib chiqishga ehtiyoj katta. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonda "davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash"¹ masalasi alohida ta'kidlangan. Zero, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash masalasi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunga kelib, mustaqil O'zbekiston dunyoning ko'p davlatlari, jumladan, ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar bilan o'zaro hamkorlik qilayotgani o'zbek xalqi va boshqa millat vakillarining milliy xususiyatlarini chuqur o'rganish, uni qiyosiy jihatdan tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli bir-biridan uzoqda yashovchi o'zbek va ingliz xalqlari noverbal nutqi va uning vositalarini qiyoslab o'rganish yaqin hamkorlik aloqalari ta'minlanishiga yo'l ochishi mumkinligi bilan o'ta muhimdir. Shunga ko'ra, turli tizimga mansub o'zbek va ingliz xalqlarining nutqiy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони / Халқ сўзи, 2019, 22 октябрь, №218 (7448).

muloqotlarini yanada aniqroq tushunish va uning bo‘yoqdorligini oshirib beruvchi noverbal vositalarni qiyosiy asosda tadqiq qilish bugungi kunda juda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 701-son “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy tillarini o‘qitishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy, ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha A.Hill, A.Piz, V.Birkenbel, D.Kristal, A.Merabyan, N.Eyzer, J.Liskomb, N.Gerard, H.Calero, G.Treger, G.Bombelli, L.Soler, R.Karter, V.Nash, L.Brosnan, G.Kolshanskiy, G.Kreydlin, Z.Chanesheva, O.Axmanova, I.Gorelov, S.Stepanov, V.Labunskaya, L.Rabdanova, O.Popchuk² kabi olimlar bir qator

² Hill A. Introduction to linguistic structures. – New York: Brace and Co., 1958; Pease A., Pease B. The definitive book of body language. – Australia: Pease international, 2004; Биркенбил В. Язык интонации, мимики, жестов. – СПб. Питер, 1979; Crystal D. Prosodic systems and intonation in English. – G.B. Cambridge University Press, 1969; Crystal D. The English tone of voice: Essays in intonation, prosody and paralanguage. – London: Edward Arnold, 1975; Crystal D. Txting: The gr8 db8. – Oxford: Oxford University Press, 2008; Crystal D., Quirk R. Systems of prosodic and paralinguistic features in English. – Netherlands: De Gruyter Mouton Press, 1964; Crystal D. Paralinguistics. // Linguistics at large. 1971; Mehrabian A. Silent Messages. California: Wadsworth Pub. Co., 1971; Ethier N.A. Paralinguistic and Nonverbal Behaviour in Social Interactions: A Lens Model Perspective. A thesis for Doc. of phil. – Canada, 2010; Liscombe J.J. Prosody and Speaker State: Paralinguistics, Pragmatics, and Proficiency. – US.: Columbia University, 2007; Gerard I.Nierenberg, Henry H.Calero. How to Read a Person Like a Book. – India: Barnes & Noble Digital, 1990; Calero Henry H. The Power of NonVerbal Communications How You Act Is More Important Than What You Say. – Aberdeen: Silver Lake Publishing, 2005; Trager George L. Paralanguage: A first approximation. // Studies in Linguistics. 1958. – Vol.13; Bombelli G., Soler L. Teaching paralinguistic features as expressing emotion: a phonological approach to appraisal? // Proceedings 33rd International Systemic Functional Congress. 2006; Carter R., Nash W. Seeing through Language. – Massachusetts: Blackwell Publishers, 1990; Brosnahan L. The sound of language. – Cambridge: W.Heffer and Sons ltd, 1961;

ishlarni amalga oshirdilar va mazkur sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shdilar. Ular ingliz, nemis, yapon, ispan, fransuz, rus tillarini chet tili sifatida o‘rganishda noverbal vositalar birliklarining o‘rnini turli yondashuvlar asosida tadqiq etdilar. O‘zbek tilshunosligida ham bu masala dastlab nutq madaniyati, muloqot me‘yorlari doirasida o‘rganilgan. Bu yo‘nalishda A.Nurmonov, M.Saidxonov, S.Mo‘minov, M.Kurbanov, M.Burxonova, N.Yuldashev, M.Hakimov, M.Zokirov, Q.Kaharov, N.Xursanov, M.Baratova, A.Meliqo‘ziyevlar³ tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Lekin o‘zbek va ingliz xalqlarining yozma nutqdagi noverbal vositalari, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar, shuningdek, noverbal vositalarning milliy-madaniy hamda me‘yoriy xususiyatlari qiyosiy planda maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Qiyosiy tilshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz tillaridagi noverbal vositalarning milliy-madaniy xususiyatlarini tanlangan asarlar misolida qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek va ingliz tillaridagi nutqiy muloqotda qo‘llanuvchi noverbal vositalarni qiyosiy o‘rganish;

Brosnahan L., Malmberg B. Introduction to phonetics 2nd edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1975; Колшанский Г.В. Паралингвистика. – М.: Ленант, 2014; Крейдлин Г.Е. Мужчины и женщины в невербальной коммуникации. – М.: Языки славянской культуры, 2005; Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика: Язык тела и естественный язык. – М.: Новое литературное обозрение, 2002; Чанышева З.З. Лексические средства обозначения паралингвистических компонентов речи в современном английском языке: Дисс. ... канд.филол.наук. – М., 1979; Ахманова О.С., Панфилов В.З. Экстралингвистические и внутрилингвистические факторы в функционировании и развитии языка // Вопросы языкознания. 1963. – №4.; Горелов И. Невербальные компоненты коммуникации. – М.: 5 стереотип, 2023; Степанов С.С. Язык внешности. Жесты, мимика, черты лица, почерк и одежда. Litres, 2022; Лабунская В.А. Невербальное поведение. – Ростов на Дону: Ростов, 1986; Рабданова Л.Р. Графические средства как компонент повествовательной структуры нарративного текста: Дисс. ... канд.филол.наук. – Улан-Уде, 2018; Попчук О.М. Лингвистические и паралингвистические средства реализации ложного высказывания в акте коммуникации: автореф: Дисс. ... канд.филол.наук. – М., 2006.

³ Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. I жилд. – Тошкент: Toshkent, 2012; Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012; Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Тошкент: Фан, 2008; Саидхонов М. Нoвeрбaл вoситaлaр вa улaрнинг ўзбeк тилидa кўллaнилиши: Филол.фан.номз. ... дисс.авторeф. – Тошкeнт, 1993; Саидхонов М. Ўзбeк тилидa ишорaларнинг вeрбaллaшувидa мaтний хусусиятлaри: Филол. фaн. д-ри (DSc) ... дисс. – Фaрғoнa, 2022; Мўминов С.М. Ўзбeк мулоқoт хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлaри: Филол. фaн. д-ри ... дисс. авторeф. – Тошкeнт, 2000; Курбaнов М.А. Ўзбeк, усмонли турк, инглиз вa рус тиллaридa нoвeрбaл мулоқoтни ифoдaлoвчи вoситaлaр тaдкиқи: Филол. фaн. б. фaлс. док. (PhD)...дисс. – Андижoн, 2021; Курбaнов М.А. Касб-кoр вa хунaр билaн бoғлиқ пaрaлингвистик вoситaлaрни нoвeрбaл мулоқoтдa ифoдa этилиши // Science and Education Scientific Journal, 2020. – Vol.1, Issue 3; Бурxoнoвa М. Oльфaктор лингвистикa. Моногpaфия. – Фaрғoнa: Classic, 2022; Юлдaшев Н. Пaрaлингвистикa. Лeкция для мaгистрaнтoв. – Нукус: Кaрaкaлпaкский гoсудaрственный университет, 2011; Ҳaкимoв М., Зoкиров М., Зoкирoвa С., Фoзиeвa М. Тил нaзaрияси вa aмaлиёти. – Фaрғoнa: Фaрғoнa нaшриёти, 2016; Кaхaров К. Ўзбeк вa немис нутқий этикетлaрининг қиёсий тaдкиқи: Филол. фaн. б. фaлс. док. (PhD) ... дисс. – Андижoн, 2020, Хурсaнoв Н. Дpaмaтик дискурсдa вeрбaл вa нoвeрбaл кoмпoнeнтлaр мунoсaбaти (ўзбeк вa инглиз тилидaги асарлaр мисoлидa): Филол. фaн. б. фaлс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкeнт, 2022, Bаrаtоvа М. O‘zbeكونa pаrаlingvistik vositаlаrning tizimiy tаdqiqi: Filol. fаn. b. fаls. dok. (PhD) ... diss. – Buxoro, 2023, Meliqo‘ziyev A. Pаrаlingvistik vositаlаrning tipologik tаdqiqi: Filol. fаn. b. fаls. dok. (PhD) ... diss. – Fаrg‘onа, 2024.

o'zbek va ingliz tillarida so'zlashuvchilarning muloqot jarayonida kinetik vositalardan foydalanishlarini qiyosiy jihatdan tahlilga tortish;

o'zbek-ingliz tillarida noverbal vositalarning fonatsion turlarini talqin etish;
sukutni aloqa-aralashuv vositasi sifatida izohlash hamda o'rganilayotgan asarlarda qo'llanilishini aniqlash;

mazkur xalqlarga xos noverbal vositalarning yozma nutqdagi aksini ifodalash;
o'zbek va ingliz tillaridagi noverbal vositalarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek va ingliz yozuvchilarining asarlari, turli ijtimoiy guruh vakillarining jonli verbal va noverbal nutqlari olingan.

Tadqiqotning predmetini o'rganilayotgan tillarda so'zlashuvchi xalqlarning nutqiy faoliyatidagi noverbal vositalarning o'xshash va farqli jihatlari, madaniy hamda nutqiy jarayondagi o'ziga xosliklarning qiyosi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, zidlash, qiyoslash va sotsiolingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

aloqa-aralashuv jarayonida noverbal vositalarning fonatsion, kinetik va grafik komponentlari shaxsning milliy-madaniy identiteti, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashlari va hissiy-ruhiy xususiyatlari haqida axborot tashuvchi kompleks semiotik tizim sifatida faoliyat yuritishi nazariy jihatdan asoslangan;

o'zbek va ingliz xalqlari muloqot jarayonida nigoh, ruhiy va hissiy ta'sir natijasida inson tanasida yuzaga keluvchi psixofiziologik reaksiyalar (qaltiroq, teri rangining o'zgarishi va boshqa somatik holatlar)ni ifodalashda kinetik vositalardan foydalanishning umumiy va milliy-mental farqlari, shuningdek, imo-ishora va tashqi xatti-harakatlar tizimining milliy xususiyatlari lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinishi Tohir Malik va Agata Kristi asarlari materiali asosida aniqlangan;

o'zbek va ingliz xalqlarida hissiyotlar noverbal vositalarning fonatsion turiga mansub ovoz ritmi, tezligi, ohangdorligi, balandligi yoki pastligi, xo'rsinish, sukut kabi vositalar bilan berilishi hamda uning yozma nutqda *achchiqlanib, zarda bilan, qat'iy ohangda, norozi ohangda, siniq ovozda, yig'laguday bo'lib, mehr bilan; anxiously, hesitatingly, impatiently, savagely, with bitterness, reproachfully, with dignity* kabi so'zlar orqali ifodalanishi dalillangan;

noverbal vositalarning grafik turiga kiruvchi grafon, ideogramma, diagramma, logogramma, grammatogramma kabi semiotik birliklar tizimli ravishda tahlil qilinib, Tohir Malik va Agata Kristi asarlarida tinish belgilari, fonetik takror (unli va undosh tovushlarning grafika orqali takroriy ko'rsatilishi) hamda boshqa vizual-kompozitsion elementlarning badiiy matnda ma'no yuklash funksiyasi sifatida izchil qo'llangani ilmiy dalillar asosida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek va ingliz tillaridagi noverbal vositalarning tadqiqi amalga oshirilishi natijasida olingan xulosalar paralingvistika, antropolingvistika,

lingvokulturologiya, psixolingvistika yo‘nalishlarini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitish, nutq madaniyatiga doir tadqiqotlar yaratishda xizmat qiladi;

o‘zbek va ingliz tillarida noverbal nutq shakllarining o‘ziga xos jihatlarini yoritishga oid natijalar qiyosiy tilshunoslik, etnolingvistika, lingvokulturologiya, nutq madaniyati sohalari uchun muhim nazariy qarashlarning shakllanishiga asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi taklif va tavsiyalarning amaliyotda qo‘llanganligi, xalqaro va respublika miqyosida ilmiy-metodik hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari to‘plamlarida, OAK tomonidan ro‘yxatga olingan ilmiy jurnallarda, xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan maqolalar, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati noverbal muloqotni o‘zida mujassam etgan tilshunoslikning paralingvistika bo‘limi haqidagi nazariy bilimlarni boyitishi, kelgusi tadqiqotlar uchun muhim manbalardan bo‘lib xizmat qilishi, psixolingvistika, tarjimashunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik kabi fanlarning rivojiga hissa qo‘shishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarjimashunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, chet tillarni o‘qitish metodikasi, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi fanlardan uslubiy ko‘rsatma, o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratish, shuningdek, tarjima lug‘atlari tuzish, muloqot jarayoniga oid tushunchalarni takomillashtirish, internet olamida bloglarni yuritish, marketolog va SMM chilarning samarali ish yuritishlarida katta amaliy ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek va ingliz tillarida noverbal vositalarning qiyosiy tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

aloqa-aralashuv jarayonida noverbal vositalarning fonatsion, kinetik va grafik komponentlari shaxsning milliy-madaniy identiteti, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashlari va hissiy-ruhiy xususiyatlari haqida axborot tashuvchi kompleks semiotik tizim sifatida faoliyat yuritishi nazariy jihatdan asoslanganligiga doir xulosalaridan 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan AL-FDU2022307-010 raqamli “Lingvistik tahrir va tarjimashunoslik” ilmiy-tadqiqot markazida “Antiplagiat” dasturini amaliyotga joriy etishda, ilmiy-amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2024-yil 13-dekabrda 04/7455-son ma’lumotnomasi). Natijada noverbal vositalarning kinetik, fonatsion va grafik turlarining yozma nutqdagi aks etishi hamda ularning o‘zbek va ingliz tillaridagi tarjimasi “Antiplagiat” dasturining takomillashishiga olib kelgan;

o‘zbek va ingliz xalqlari muloqot jarayonida nigoh, ruhiy va hissiy ta’sir natijasida inson tanasida yuzaga keluvchi psixofiziologik reaksiyalar (qaltiroq, teri rangining o‘zgarishi va boshqa somatik holatlar)ni ifodalashda kinetik vositalardan foydalanishning umumiy va milliy-mental farqlari, shuningdek, imo-ishora va tashqi xatti-harakatlar tizimining milliy xususiyatlari lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinishi Tohir Malik va Agata Kristi asarlari materiali asosida

aniqlanganligiga doir xulosalardan 2021-2023-yillarga mo'ljallangan F3-2019081773-raqamli "Musiq va san'at o'quv muassasalari uchun "Bolalar raqsi" fanidan interaktiv o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish" mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda, xususan, "O'zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o'zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug'ati"ni yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 10-martdagi 1/04-193-son ma'lumotnomasi). Natijada noverbal vositalarning kinetik turlariga kiruvchi o'zbek va ingliz tillarida berilgan misollardan o'zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug'atini yaratishda salmoqli hissa qo'shilgan;

o'zbek va ingliz xalqlarida hissiyotlar noverbal vositalarning fonatsion turiga mansub ovoz ritmi, tezligi, ohangdorligi, balandligi yoki pastligi, xo'rsinish, sukut kabi vositalar bilan berilishi hamda uning yozma nutqda *achchiqlanib, zarda bilan, qat'iy ohangda, norozi ohangda, siniq ovozda, yig'laguday bo'lib, mehr bilan, anxiously, hesitatingly, impatiently, savagely, with bitterness, reproachfully, with dignity* kabi so'zlar orqali ifodalanishi dalillanganligiga doir xulosalaridan 2024-2025-yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlari ssenariyasini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2025-yil 10-martdagi 26-36-959-son ma'lumotnomasi). Natijada ohangga doir masalalar o'rganilgan bo'lib, amalda qo'llanildi va eshittirishlarning sifati oshib, jozibadorlik qo'shilgan;

noverbal vositalarning grafik turiga kiruvchi grafon, ideogramma, diagramma, logogramma, grammatogramma kabi semiotik birliklar tizimli ravishda tahlil qilinib, Tohir Malik va Agata Kristi asarlarida tinish belgilari, fonetik takror (unli va undosh tovushlarning grafika orqali takroriy ko'rsatilishi) hamda boshqa vizual-kompozitsion elementlarning badiiy matnda ma'no yuklash funksiyasi sifatida izchil qo'llangani ilmiy dalillar asosida isbotlanganligiga doir xulosalaridan "ERASMUS+ Capacity Building Project 101129076 EMPOWER: Women Entrepreneurship, Empowerment, employability and self-confidence" loyahasida foydalanilgan (Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutining 2025-yil 17-maydagi 1112-03-son ma'lumotnomasi). Natijada yosh tadbirkor ayollarning tadbirkorlik kompetentligini oshirishda chet tillarini bilish hamda undan foydalanishda noverbal vositalardan xatosiz foydalanish, biznes etiketiga rioya qilish, xatti-harakatlarga e'tiborli bo'lish hamda ovoz ohangiga doir ko'nikmalarini rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xalqaro konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 20 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, 1 ta lug'at, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola, shulardan 6 ta respublika va 7 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 168 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi va ularning ishonchligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati va ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tilshunoslikda noverbal vositalarni o'rganish tarixi**" deb nomlanib, unda noverbal vositalarning tilshunoslar tomonidan o'rganish obyektiga aylanishi hamda alohida soha sifatida shakllanishi haqidagi nazariy fikrlar bayon etilgan.

Birinchi bobning birinchi fasli "Tilshunoslikda verbal va noverbal muloqot talqini" deb nomlanib, unda muloqot shakllari atroflicha o'rganilgan.

"Muloqot" tushunchasining turlicha ta'riflari mavjud bo'lib, ular quyidagilar: *muloqot* ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi bilish yoki baholash xususiyatiga ega bo'lgan axborot almashinuvida ularning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida ta'riflanadi⁴. Yoki *muloqot* – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayonidir⁵. Bu "muloqot" tushunchasining eng to'liq va aniq ta'riflaridan biri deb hisoblaymiz. Muloqot barcha tirik jonzotlarga xos, lekin inson nazarida u eng takomillashgan shakllarga ega bo'lib, nutq vositasida anglanadi. Muloqotda mazmun, maqsad va vositalar kabi nuqtayi nazarlar ajratiladi⁶.

Inson tug'ilar ekan, o'sha ondanoq tashqi dunyo bilan muloqotga kirishadi, bir qarashda biz uchun bu oddiy hol, oddiy tushunchadek tuyuladi, lekin aslida shaxslararo muloqot juda ham murakkab jarayon bo'lib, hayotimiz mobaynida uni o'rganib boramiz hamda mukammallashtiramiz. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida D.Parigin shunday yozadi: "Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi: individlarning o'zaro ta'siri; individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi; bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati; bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatishi; bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati; shaxslarning bir-birlarini tushunishi"⁷.

⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muloqot>. (murojaat sanasi: 09.07.2022).

⁵ <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/102993/13.mavzu.Muloqot.htm>. (murojaat sanasi: 11.07.2022).

⁶ Usmonova D., Raxmonqulova M. Muloqot va unga yondosh tushunchalar. // Canada international conference on developments in education, sciences and humanities, 2023. – Vol.9. – № 1. – B.1.

⁷ Парыгин Д.Б. Социальная психология как наука монография. – Л., 1965. – С.46.

Noverbal muloqot va xulq-atvor to'g'risidagi ilmiy izlanishlar 1872-yilda Charlz Darvinning *"Insonlar va hayvonlarda emotsiyalar ifodasi"* nomli asarining nashr qilinishi bilan boshlangan, degan fikr mavjud bo'lsa-da, noverbal nutq va uning ko'rinishlariga qiziqish miloddan avvalgi asrlarda yashagan faylasuf olimlarning ham e'tiborida bo'lganligi ma'lum. Ikki ming yil avval Sitseron notiqlarni jestlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatgan. Jestlar bo'yicha birinchi lug'at Rim notig'i Kvintalianga tegishli⁸. Djon Bolivarining 1664-yilda yozilgan, imo-ishoralar tiliga bag'ishlangan *"Xirologiya yoki imo-ishoralar tili"* va *"Xiromaniya yoki qo'l ritorikasi san'ati"* nomli asarlari insonning ma'noli imo-ishoralari o'rganish borasida yangi qadam bo'lgan⁹. O'sha vaqtdan buyon, so'zlersiz muloqot va xatti-harakatlarning turlari, ta'siri va ularning ifoda etilishi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi.

Professor Sh.Safarov ta'kidlaganidek, "... nutqiy muloqotda axborot uzatish "yuki", so'zsiz, lisoniy birliklar "yelkasi"ga tushadi, ammo shaxslararo munosabat meyor, milliy-madaniy qadriyatlar tizimini egallamasdan turib, to'laqonli muloqotga kirishishning imkoni yo'q"¹⁰.

Noverbal nutq haqida ilk marotaba XX asrning 30-40-yillarida funksional lingvistika yoki Praga lingvistik to'garagi vakillari qiziqqanligi haqida ham ma'lumotlar mavjud¹¹. Shuningdek, noverbal nutqni o'rganadigan tilshunoslikning yangi yo'nalishi paralingvistikaga asos solinadi. Paralingvistika tushunchasi dastlab 1940-yillarning oxirlarida amerikalik tilshunos A.Xill tomonidan kiritilgan deb e'tirof etilsa-da¹², lekin 1930-yillarda rus tilshunos olimi N.Yushmanov o'z tadqiqotlarida *"Экстранормальная фонетика"* degan tushunchani qo'llaganligi ham ma'lum¹³, bu esa paralingvistik vositalardan biri haqida ilk bor 1930-yillarda tadqiqot ishlari boshlanganligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda paralingvistika ekstralingvistika, psixolingvistika, biolingvistika, lingvokulturologiya, interlingvistika va intralingvistika kabi tilshunoslikning yangi va dolzarb sohalaridan biri hisoblanadi. O.Axmanovning yozishicha, tilshunoslik bu *"predlingvistika"*, *"mikrolingvistika"* va *"metalingvistika"* ga bo'linadigan *"makrolingvistika"* dir. *"Predlingvistika"* til ifodasining fizik tabiati bilan shug'ullanadi. *"Metalingvistika"* til va tafakkur, til va jamiyatning turli aloqalarini tekshiradi. *"Mikrolingvistika"* intralingvistika hisoblanadi, u tilga ichki tomondan yondashadi. *"Predlingvistika"* va *"metalingvistika"*ni bir umumiy nom – *"ekstralingvistika"* ostida birlashtirish mumkin. Paralingvistika esa kommunikatsiya (muloqot) uchun xizmat qiladigan nutqning yordamchi vositalarini o'rganadi"¹⁴.

⁸ <https://en.wikipedia.org/wiki/Quintilian>. (date of access: 20.03.2025).

⁹ Xamidova O. Maktab o'qituvchilari faoliyatida kommunikativ ko'nikmalarni rijovlantirishning ahamiyati. // Worldly knowledge International journal of scientific researchers, 2024. – Vol.5,2. – P.934.

¹⁰ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б.108.

¹¹ Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. I жилд. – Тошкент: Тошкент, 2012. – Б.164.

¹² <https://ru.wikipedia.org/wiki/Паралингвистика>. (дата обращения: 25.04.2021).

¹³ <http://tapemark.narod.ru/les/367a.html>. (дата обращения: 25.04.2021).

¹⁴ Ахманова О.С., Панфилов В.З. Экстралингвистические и внутрilingвистические факторы в функционировании и развитии языка. // Вопросы языкознания, 1963. – №4. – С.46.

Verbal va noverbal nutq bilan bir qatorda madaniyatlararo muloqot ham hayotimizda muhim sanaladi. So‘nggi paytlarda ma‘lum bir til aspektlarini yoki madaniyatni o‘rganishda “Til madaniyati”, “Lingvokulturologiya” kabi terminlarga duch kelmoqdamiz. Ushbu termin ikki so‘zdan iborat bo‘lib, tilni madaniyat orqali yoki madaniyatni til orqali o‘rganishni taqozo etadi.

Madaniyatlararo muloqot – bu turli madaniyat vakillari o‘rtasida ma‘lumot almashish jarayoni hisoblanadi. U og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqotni, shuningdek, madaniy kodlar, an’analar, qadriyatlar va xatti-harakatlar normalarini o‘z ichiga oladi. Samarali madaniyatlararo muloqot til farqlari, madaniy stereotiplar, muloqot odob-axloqidagi farqlar va axborotni idrok etish kabi potensial to‘siqlardan xabardor bo‘lishni talab qiladi¹⁵.

Noverbal vositalarni o‘rganishda lingvomadaniy xususiyatlar va madaniyatlararo muloqot tushunchalarining ahamiyati haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalambor, verbal til turli xalqlarda universal bo‘lmagani kabi, noverbal til ham universalliklarga ega bo‘lsa-da, madaniy xususiylklar mavjudligini yodda saqlash kerak.

Insoniyat rivojlangani sari uning tadqiqot obyekti ham o‘zgarib bormoqda, lekin til va uning xususiyatlari dolzarbligini yo‘qotmagan, chunki rivojlanish madaniyatlararo muloqotni taqozo etadi. Muloqot esa o‘z borasida verbal va noverbal turlarga ajratilar ekan, zamonaviy dunyoda uni o‘rganish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Birinchi bobning “Jahon tilshunosligida noverbal vositalarning o‘rganilishi” deb nomlangan ikkinchi faslida noverbal vositalar va ularning turlariga o‘z tavsiflarini tavsiya qilgan olimlarning tadqiqotlari yoritib berilgan.

Noverbal vositalar to‘liq o‘rganilmagan bo‘lsa-da, uning tadqiqi ustida bir qancha o‘zbek va xorijiy tadqiqotchilar muvaffaqiyatli izlanishlar olib borganlar. Jumladan, jahon tilshunosligida: Alan va Barbara Pizlar, V.Birkenbel, D.Kristal, N.Eyzer, J.Liskomb, I.Jerard, H.Kalero, L.Brosnan, G.Kolshanskiy, G.Kreydlin, Z.Chanesheva, I.Gorelov, S.Stepanov, L.Rabdanova¹⁶ va boshqalar noverbal muloqot, paralingvistika va uning vositalari ustida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

¹⁵ Маматова Д.К. Межкультурная коммуникация и лингвокультурология // Лучшие интеллектуальные исследования, 2025. – Ч.40, Т.1. – С.90.

¹⁶ Pease A., Pease B. The definitive book of body language. – Australia: Pease international, 2004; Биркенбил В. Язык интонации, мимики, жестов. – СПб. Питер, 1979; Crystal D. Prosodic systems and intonation in English. – G.B. Cambridge University Press, 1969; Ethier N.A. Paralinguistic and Nonverbal Behaviour in Social Interactions: A Lens Model Perspective. A thesis for Doc. of phil. – Canada, 2010; Liscombe J.J. Prosody and Speaker State: Paralinguistics, Pragmatics, and Proficiency. – US.: Columbia University, 2007; Gerard I.Nierenberg, Henry H.Calero. How to Read a Person Like a Book. – India: Barnes & Noble Digital, 1990; Calero Henry H. The Power of NonVerbal Communications How You Act Is More Important Than What You Say. – Aberdeen: Silver Lake Publishing, 2005; Brosnahan L. The sound of language. – Cambridge: W.Heffer and Sons Ltd, 1961; Колшанский Г.В. Паралингвистика. – М.: Ленант, 2014; Крейдлин Г.Е. Мужчины и женщины в невербальной коммуникации. – М.: Языки славянской культуры, 2005; Чанышева З.З. Лексические средства обозначения паралингвистических компонентов речи в современном английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1979; Горелов И. Невербальные компоненты коммуникации. – М.: 5 стереотип, 2023; Степанов С.С. Язык внешности. Жесты, мимика, черты лица, почерк и одежда. Litres, 2022; Лабунская В.А. Невербальное поведение. – Ростов на Дону: Ростов, 1986; Рабданова Л.Р. Графические средства как компонент повествовательной структуры нарративного текста: Дисс. ... канд. филол. наук. – Улан-Уде, 2018;

Nemis olimasi, V.Birkenbil tana tilini kinesika deb nomlab, uni ikkiga: analog va raqamli signallarga ajratadi. Noverbal vositalarni o'rganishda o'zining ulkan hissasini qo'shgan tadqiqotchilar Alan va Barbara Pizlardir. Ularning "Body language" nomli asari qisqa mudatda 48 tilga tarjima qilinib, 20 milliondan ortiq nusxada tarqatilgan. Shuningdek, S.Rosdiana internet orqali muloqot jarayonida foydalanadigan paralingvizmlarga e'tiborini qaratadi, J.Liskomb paralingvistik vositalar nutqda so'zlovchining emotsional holatiga qarab o'zgarishini aytadi. N.Eyzer paralingvistika deganda, asosan, ovoz bilan bog'liq tushunchalarni va noverbal muloqotda esa tana holati, xatti-harakatlar, mimika, distansiya kabi tushunchalarni qabul qiladi. D.Kristal ham ayrim lingvist olimlar kabi, paralingvistikani faqat ovoz bilan bog'liq fenomenlar bilan bog'laydi va kinesikani paratil bilan aralastirmaslikni taklif qiladi.

G.Kolshanskiy paralingvistikaning fan sifatida rivojlanishiga asos solgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning "Paralingvistika" deb nomlangan monografiyasida paratilning substansiyasi va funksiyasi, shaxs va paratil, paratil va subyekt, paratilning turlari, fonatsiya, kinesika, paratil tizimida jestlar, paratil va matn, paratil va nutq kabi tushunchalar misollar bilan keng yoritilgan. Z.Chanesheva, L.Rabdanova va T.Germasheva yozma nutqda paralingvizmlar, Y.Chernova va D.Savov paralingvistikaning darsda o'qituvchi nutqidagi o'rni, S.Stepanov tashqi ko'rinishimizdan tortib kiyinishimizgacha bo'lgan noverbal vositalarning o'rni haqida ma'lumotlar keltirganlar. V.Labunskaya noverbal vositalarni ekstralingvistika, prosodika, kinesika, takesika kabi turkumlarga ajratadi. G.Kreydlin noverbal muloqotni o'rganuvchi 10 ta asosiy fanni ajratib ko'rsatadi: paralingvistika; kinesika; okulesika; auskultatsiya; haptika; gastika; olfaksiya; proksemika; xronemika; sistemologiya. Y.Ivanova badiiy matnda paralingvistik elementlarni o'rgangan olim bo'lib, u o'z ishida noverbal vositalarni: 1)ramziy; 2) hissiy; 3) reaktiv; 4) indikativ; 5) regulyatorlar; 6) adapterlar kabi turlarga bo'ladi.

Birinchi bobning uchinchi fasli "O'zbek tilshunosligida noverbal vositalar tadqiqi" deb nomlanadi. Ushbu faslda o'zbek olimlarining ishlari tahlil etilgan.

Jahon, rus olimlari kabi o'zbek tilshunoslari ham noverbal nutqqa o'z e'tiborlarini qaratib, noverbal nutq va uning ko'rinishlari haqida A.Nurmonov, M.Saidxonov, S.Mo'minov, M.Qurbonov, N.Yuldashev, M.Hakimov, M.Zokirov, Q.Kaxarov, M.Burxonova¹⁷ va bir qator olimlar izlanishlar olib borgan.

O'zbek tilshunosligining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ustoz, professor A.Nurmonov o'zining bir qancha ishlarida paralingvistika va uning vositalariga diqqatni qaratib, o'zbek tili paralingvistik vositalari haqida ilk ma'lumotlarni

¹⁷Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. I жилд. – Тошкент: Тошкент, 2012; Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишпоралар. – Тошкент: Фан, 2008; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Курбанов М.А. Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилларида новербал мулоқотни ифодаловчи воситалар тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Андижон, 2021; Юлдашев Н. Паралингвистика. Лекция для магистрантов. – Нукус: Каракалпакский государственный университет, 2011; Ҳақимов М., Зокиров М., Зокирова С., Ғозиева М. Тил назарияси ва амалиёти. – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2016; Кахаров Қ. Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Андижон, 2020; Бурхонова М. Ольфактор лингвистика. Монография. – Фарғона: Classic, 2022.

tadqiq etgan. Olim imo-ishoralar tiliga bag'ishlagan izlanishlarida muammoning paydo bo'lish tarixi, uning obyekti, paralingvistik belgilari, til strukturasi, lingvistik va paralingvistik vositalarning o'zaro munosabati, imo-ishoralarning kelib chiqishi, imo-ishora fe'llari, ulardan foydalanish ehtiyoji hamda o'zbek tilidagi ayrim noverbal vositalarning sharhini keltirgan. Olimning bu sohada olib borgan izlanishlari, ko'p yosh tadqiqotchilar uchun asosiy manba sifatida xizmat qilib kelmoqda¹⁸.

O'zbek tilshunosligida M.Saidxonov ko'plab tadqiqotlarini aynan noverbal vositalarning o'zbek tilidagi o'rniga bag'ishlagan bo'lib, paralingvistika va noverbal vositalar yo'nalishida tadqiqot olib boruvchilar uchun olimning ishlari haqqoniy xazina bo'lib xizmat ko'rsatmoqda. Olimning "O'zbek tilida ishoralarning verballashuvi va matniy xususiyatlari" nomli dissertatsiyasi aloqa-aralashuv jarayonida dialogik nutq va uning pragmatik xususiyatlari, nutqiy muloqotning matniy verbalizatsiyasi tadqiqi va tahliliga bag'ishlangan bo'lib, o'zbek tilida ishora fe'llarining leksik-semantik guruhi, grammatik jihatlari, strukturasi va matniy xususiyatlarini o'rgangan¹⁹. Shuningdek, M.Kurbanovning "O'zbek, usmonli turk, ingliz va rus tillarida noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar tadqiqi"ga bag'ishlangan dissetatsiya ishi va ko'plab maqolalarini ta'kidlab o'tish joiz²⁰.

Ikkinchi bob "**O'zbek va ingliz tillarida kinetik vositalar**" deb nomlanadi. Ushbu bobda noverbal vositalarning kinetik turi va uning subguruhlari missollar bilan atroflicha yoritiladi.

Ikkinchi bobning birinchi fasli "Talvasa" va "Staylsdagi sirli voqea" asarlarida mimikaning ifodalanishi" deb nomlanib, mimik harakatlar orqali ifodalanishi mumkin bo'lgan hissiyotlar hamda uning shakllari tahlil qilinadi.

Mimika (yun. – taqdid) – yuz mushaklarining ifodali harakati. Insonning ma'yuslik, xursandlik, g'azab, xafalik kabi hissiyotlarini ifodalaydi. Mimika oddiy kishilarda tabiiy tarzda ro'y beradi. Teatr san'atida esa aktyorlarning doimiy mashqlari asosida yuzga keladi. Yuzga beriladigan pardoz mimika ifodaviyligini oshiradi. Mimika aktyorning nutqi bilan hamohang bo'lib, obraz mohiyatini, qahramonlarning o'zaro munosabatlarini ochishga xizmat qiladi. Puxta o'ylangan va texnik jihatdan mukammal mimika sahnadagi so'z ahamiyatini oshiradi va uning tub ma'nosini chuqur anglashga yordam beradi. Ayniqsa, so'zsis o'rinlarda, sukunatlarni to'ldirishda muhim ahamiyatga ega. Pantomimaga ixtisoslashgan (fransuz aktyori Marsel Marso kabi) aktyorlar faqat tana harakatlari va mimikaga tayanishgan.

Mimika bir necha sekundlar davom etadigan hodisadir, uni har doim ham payqab olib bo'lmaydi. Tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, ayollar tomonidan namoyon bo'ladigan mimik ifoda erkaklarnikiga nisbatan ishonchliroq bo'lar ekan, chunki ayollar, asosan, hissiyotlarga berilgan bo'lib, ularning hissiyotlari yuzida

¹⁸ Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 218.

¹⁹ Саидхонов М. Ўзбек тилида ишораларнинг вербаллашуви ва матний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2022.

²⁰ Курбанов М.А. Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилларида новербал мулоқотни ифодаловчи воситалар тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Андижон, 2021.

namoyon bo‘ladi, erkaklar esa hissiyotlarini yaxshiroq boshqarganligi sababli, mimik ifodalarini ham ko‘rsatmasliklari mumkin²¹.

Jestlar e‘tibor va hurmat, jirkanish va hurmatsizlik, hukmronlik va takabburlikni namoyon qilishi mumkin. Jest va mimik harakatlarni qalbakilashtirishning deyarli iloji yo‘q, chunki ular ong osti harakatlari hisoblanadi. Mohir aktyorlar yoki paralingvistik vositalarni chuqur o‘rgangan tadqiqotchilar ham o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olishsa-da, mikro jest va mimik harakatlar, okulistik (ko‘z, nigoh) ifodalar ularning harakatlarini fosh etib qo‘yishi mumkin.

Yolg‘on so‘zlash jarayonida, ayniqsa, so‘zlovchining o‘zi buni istamagan holda so‘zlayotgan bo‘lsa, yuz mushaklarining xarakterli qisqarishi, ko‘z qorachig‘ining kengayishi, yuz qismidagi qon tomirlarining kengayishi va buning oqibatida yuzning qizarib ketishi, ko‘z pırpırashı tezligining oshishi hamda mikro harakatlar – og‘izni yopish, burunni ushlab, ko‘z va quloqlarni silash, bo‘yinni qashlash, ko‘ylak yoqasi, egnini yoki yengini tortib qo‘yish kabi harakatlarni kuzatish mumkin.

Insonning yuz qismida ko‘z va nigohdan keyin eng ko‘p ma‘no tashuvchi qism bu og‘iz va aynan lablardagi o‘zgarish, kulish, jilmayish, lab burish, labdagi titroq kabi holatlardir. Jilmayishning o‘zi ham xursandchilik, ham ma‘yuslikni anglatishi, lab burish norozilikni, labning titrashi esa jahlni yoki qo‘rquvni anglatishi mumkin. Quyida ikki asarda keltirilgan misollar qiyosi orqali o‘zbek va ingliz tillaridagi noverbal vositalar ko‘rinishi o‘rganildi. Baxtiyorlikni, ko‘pincha, tabassum orqali anglab olishimiz va uni ko‘rsatishimiz mumkin. Samimiy tabassum ko‘tarilgan yanoqlar, ko‘z atrofi ajinlari, ko‘z orbitalari atrofidagi muskullarning harakatini o‘z ichiga oladi:

– *Hozir bilsang, shaharga yetib borgunimizcha qarib qolasan, – Kalamush o‘zining bu hazilidan **mamnun bo‘lib huzurlanib kuldi*** (T.Malik, Talvasa, 410-b.).

“*You’re a cynic, Evie,*” said John, **laughing**. *Where’s tea to-day--inside or out?*” (A.Christie, The Mysterious Affair at Styles, p. 6)

– *Sen beadabsan, Evi, – dedi Djon **kulib**. Bugun choy qayerda – ichkarida yoki tashqaridami?*

Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, ham o‘zbek tilida, ham ingliz tilida tabassum, jilmayish mamnuniyatni va xursandchilikni anglatilishi mumkin, har ikkala tilda ham uning aksi deyarli bir xil keltirilgan.

M.Burxonovanning fikricha “imo-ishora va mimika kabi noverbal vositalar paralingvistika tarkibiga kirmaydi. Chunki bu vositalar noverbal tizimdagi vizual kanalga xos bo‘lib, ularda ko‘rib, harakatni qayd etish orqali axborot uzatish tamoyillari ustuvorlik qiladi. Shu nuqtayi nazardan noverbal vositalarning vizual sistemasiga kinesika aloqador bo‘lib, uning o‘ziga xos ichki tizimi mavjud. Bu tizim elementlari vizual paradigmaga asoslangan hodisalar sifatida e‘tirof etiladi”²². Bizning fikrimizcha esa mimik harakatlar va imo-ishoralar paralingvistikaning kinesika bo‘limiga mansub bo‘lib, paralingvistika fanining

²¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mimika>. (murojaat sanasi: 12.12.2023).

²² Бурхонова М. Ольфактор лингвистика. Монография. – Фаргона: Classic, 2022. – Б.32.

ajralmas qismidir. Mimika mikro va makro harakatlarga bo‘linib, peshona, ko‘z, lab atrofidagi ajinlardan tortib, peshona, qosh, ko‘z, burun, lab, jag‘ qismlarining ma‘noli harakatlariga ajratiladi va har bir ifoda vaziyat va kontekstdan kelib chiqib, turli ma‘nolarni anglatishi mumkin. O‘rganilgan manbalar va keltirilgan misollardan o‘zbek va ingliz tillarida so‘zlovchi xalq vakillarining mimik harakatlari orqali ifodalanadigan ma‘no va ma‘lumotlar katta farq qilmaydi degan xulosaga keldik.

“Talvasa” va “Staylsdagi sirli voqea” asarlarida nigoh orqali ifodalanadigan ma‘nolar tasnifi” deb nomlangan ikkinchi bobning ikkinchi faslida nigoh orqali his-hayajonlarning ikki tildagi ifodalanishi misollar orqali taqqoslanadi.

Tirik jonzod va ayniqsa, insonlarning nazari eng kuchli ta‘sir etuvchi va ma‘lumot tashuvchi hisoblanadi. Ko‘z va lab inson yuz qismining eng ta‘sirchan qismidir. Suhbatdoshidan ko‘zini olib qochgan odam, samimiy emas va maxfiy ko‘rinadi. Olayib qaragan inson esa imkoniyatlari cheklangan yoki odobsiz, beandisha ko‘rinadi. Biz, insonlar, odatda, nigohlar, qarashlar o‘yining nima ma‘no anglatayotganini yaxshi tushunib yetamiz. Muloqot davomida nigohlar sinxron vazifani bajaradi – nigohlar ritmikasi muloqotni aynan bir oqimga yo‘naltiradi. Shuni ham ta‘kidlash joizki, muloqot davomida so‘zlovchidan ko‘ra tinglovchi so‘zlovchiga ko‘proq qaraydi. Lekin gapining so‘ngida, tinglovchining fikrini va gapining davomi borligini ko‘rsatish uchun tinglovchiga qarab oladi. Muloqotni davom ettiruvchi ham, nazarini tinglovchidan chetga olib, fikrini jamlaydi. Tinglovchi esa ko‘z nigohlari orqali so‘zlovchiga rozilik va norozichiligini, ma‘qullash va tanbeh berish, xursandchilik va xafagarchilik, jahl va zavqlanish kabi signallarni yo‘llaydi. Ko‘z, ko‘z atrofi mimik harakatlari va ko‘z yoni mushaklari inson hissiyotlarining barcha qirralarini ochib bera oladi.

Nigoh orqali savol, javob, nafrat, g‘azab, iltijo, hayrat, o‘ziga ishonch, norozilik, muhabbat, quvonch, ma‘yuslik, najot, ilinj, xavotir, kelishuv, ajablanish, mutelik, qo‘rquv, qahr, ma‘qullash, hadik, xafalik, shodlik, ruxsat berish yoki olish, taqiq, buyruq kabi ma‘nolarni ifodalash mumkin. Quyidagi misollar bilan yuqoridagi fikrlarni misollarda ko‘rsatish mumkin:

Nigoh orqali savolni ifodalash:

Ha, qaradi! Ko‘rdi! “Hali senmiding?” degan kabi ham savol, ham nafrat nazari bilan qaradi. Hayot ziyosi so‘nayotgan ko‘zlardan so‘nggi bor otilib chiqqan nur go‘yo olovli cho‘qqa aylandi-yu, uning qalbiga qadaldi. Nazarida o‘zi ham yaralanganday bo‘ldi (T.Malik, Talvasa, 3-b.).

Ushbu misolda “Hali senmiding?” so‘zlarining nigoh orqali ifodalanishi aks ettirilgan bo‘lib, o‘quvchi bu nigohni osonlikcha ko‘z o‘ngiga keltira olishi mumkin.

Nigoh orqali muhabbatni ifodalash:

Albatta, mehr-muhabbatni ifodalashda so‘zlardan ko‘ra kuchliroq va ishonchliroq vosita bu nigoh, chunki so‘zlar aldasa-da nigoh rostni ifodalovchi “sotqin”dir.

Asror “Bugun bizlar yetdik, bugun bizlar yetdik, ertaga o‘zga”, deb jo‘r bo‘la turib **qizga muhabbatli nigohini qadadi-da**, qo‘shiqni davom ettirdi (T.Malik, Talvasa, 16-b.).

Nigoh orqali gumon va shubhani ifodalash:

– *Hamma emasdir?* – dedi Soli Murodov unga **gumon nazari bilan qarab**. – *G‘ayrat Axtamov degan o‘quvchingiz hozir qayerda?* – direktorning ajablanganini sezgan kapitan savoliga aniqlik kiritdi: – *O‘ninchi “B” sinfidan* (T.Malik, Talvasa, 339-b.).

“Oh, here’s Monsieur Poirot. He’s helping us, you know, Evie.”

*Miss Howard **shook hands with Poirot, but glanced suspiciously over her shoulder at John*** (A.Christie, The Mysterious Affair at Styles, p.67).

Oh, mana bu janob Puaro. U bizga yordam bermoqda, Evini taniysiz.

*Miss Xovard Puaro bilan qo‘l berib ko‘rishar ekan, Djonga **shubha bilan qaradi**.*

Gumon nazari bilan qarash, shubhalanib qarash, qiziqish bilan qarash bilan ifodalangan misollar nigoh bilan yetkazilishi mumkin bo‘lgan noverbal nutq ko‘rinishidir.

Bir hududda tug‘ilib, yashab ulg‘aygan odam har qanday ko‘z qarashning ma‘nosini anglab olishi mumkin, shuningdek, aksariyat xalqlarda ko‘plab nigoh orqali yuklanishi mumkin bo‘lgan ma‘nolar universal bo‘lib, til o‘rganuvchi va sayohatga chiqqan odam boshqa xalqni ko‘z qarash orqali tushunib olishi mumkin, chunki nigoh mimika va jestlardan farqli o‘laroq. inson qalbining oynasi hisoblanadi va uni soxtalashtirish deyarli imkonsiz.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “Talvasa” va “Staylsdagi sirli voqea” asarlarida jestlar va tana holati yordamida ifodalanadigan ma‘nolar” deb nomlanib, ushbu faslda jestlar va tana holati ifodalashi mumkin bo‘lgan ma‘nolar asarlardagi misollar orqali talqin qilingan.

Jestlarga keladigan bo‘lsak, jest (lotin tilidan gestus “tana harakati”) – inson tanasining yoki tana qismining ma‘lum bir ma‘no yoki ma‘noga ega bo‘lgan ba‘zi bir harakatidir, ya‘ni bu belgi yoki simvoldir. Odatda, ishlatiladigan imo-ishoralarga biror narsaga yoki biron kimga ishora qilish (bu turli mamlakatlarda ma‘nosi unchalik farq qilmaydigan kam sonli imo-ishoralardan biri), shuningdek, ba‘zi so‘zlarni ta‘kidlash uchun nutq ritmlari bilan hamohang qo‘llar va tanadan foydalanish kabi harakatlar kiradi²³.

Qo‘l orqali bajarilgan jestlar, tinglovchini tinglashga majbur etadi. Kolgate universiteti direktori, psixologiya fanlari doktori Spenser Kelli imo-ishoralar odamlarni nutq akustikasiga e‘tibor berishga majbur qilishini aniqladi. Kellining aytishicha, “imo-ishoralar shunchaki tilga qo‘shimchalar emas – ular aslida uning asosiy qismi bo‘lishi mumkin”²⁴. Uning aytishicha, qo‘l harakatlaridan foydalanish tabiiy holat bo‘lib, ko‘rlar ham muloqot jarayonida ulardan foydalanishini aniqlagan.

²³ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Жест>. (дата обращения: 13.12.2021).

²⁴ <https://www.scienceofpeople.com/hand-gestures/>. (date of access: 26.12.2021).

Rostgo'ylik, odatda, kaftlarni ochish orqali namoyon bo'ladi. Ko'rsatkich barmoq ustunlik va agressivlikdan, kaftlarni ishqalash yoqimli hodisani kutish, kaft va barmoqlarni charmashtirish kutilgan voqea yoki hodisani kutilganday sodir bo'lmaganidan dalolat beradi. Iyakni silash qaror qabul qilishning signali hisoblanadi. Qo'llarni ko'krak oldida qovushtirish mudofaa qilish, qo'llarni ko'krak oldida musht qilib kesishtirish esa agressivlik, dushmanlikni bildiradi²⁵.

Bosh orqali ifodalangan paralingvistik ma'nolar turlichadir. Bosh irg'itish, bosh chayqash orqali norozilik, "ha" yoki "yo'q" ma'nolarini, minnatdorlik, itoatkorlik, tasdiq, inkor, rozichilik, norozilik, salomlashish, ma'yuslik kabi ma'nolarni anglatish mumkin. Quyida misollar orqali buning isbotini topishga harakat qilingan.

Norozilik, inkor yoki "yo'q" ni ifodalash:

– "Zo'rroq" deysanmi? – *Ustoz unga qarab bosh chayqadi.*

– *Adashyapsan. Zo'rlik oyoq bilan bilakning quvvatida emas, iroda kuchida bo'ladi* (T.Malik, Talvasa, 21-b.).

Finally he abandoned his task, shaking his head gravely. At that moment, we heard footsteps outside, and Dr. Wilkins, Mrs. Inglethorp's own doctor, a portly, fussy little man, came bustling in (A. Christie, The Mysterious Affair at Styles, p.28).

Nihoyat, u boshini qattiq chayqab, o'z vazifasini tark etdi. Shu payt biz tashqaridan qadam tovushlarini eshitdik va doktor Uilkins, missis Ingeltorpnning shifokori, to'ladan kelgan, tirishqoq kichkina odam kirib keldi.

O'zbek va ingliz tilida yozilgan asarlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, noverbal vositalar va aynan yuqorida tahlil etilgan mimik, okulyar (nigoh, ko'z), jest (xatti-harakat), poza (sumbat) orqali ifodalangan ma'nolarning aksariyati universal xususiyatga ega bo'lib, ingliz va o'zbek xalqlarida bir xil semantikaga ega.

Uchinchi bob "Talvasa" va "Staylsdagi sirli voqea" asarlarida **qo'llanilgan fonatsion va grafik vositalar** deb nomlanadi. Ushbu bobda noverbal vositalarning fonatsion va grafik turlari tanlangan asarlar misolida tadqiq etiladi.

Uchinchi bobning birinchi fasli "Talvasa" va "Staylsdagi sirli voqea" asarlarida ohang masalasi" deb nomlanib, ushbu faslda o'zbek va ingliz tilida ohang orqali yuklatilishi mumkin bo'lgan ma'nolar izohlanadi.

Fonatsiya (yunonchadan – phone tovush, ovoz) – eshitish organlari orqali qabul qilinadigan, nutq tovushlarini shakllantiradigan fizik hodisa bo'lib, tovush ishlab chiqarishni ta'minlovchi nutq organlari harakatining yig'indisidir²⁶.

Fonatsiya – bu tovush yo'llarining artikulyar harakatlari bilan o'zgartiriladigan tovush hosil qilish uchun halqumdan foydalanish. Fonatsiya inson ovoz apparatining barcha xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan butun jismoniy hodisa sifatida, birinchi navbatda, jismoniy shaxs sifatida so'zlashuvchi subyektga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib beradi²⁷.

²⁵ Пиз А., Пиз Б. Новый язык телодвижений (Расширённая версия). – М.: Эксмо, 2010. – Б.38.

²⁶ Еникеев М.И. Общая и социальная психология. – М.: Издательская группа Норма-Инфра, 1999. – С.87.

²⁷ Казаченок А.А. Паралингвистические средства в смешанных текстах. Маг. вып. квалиф... работа. – Екатеринбург, 2020. – С.103.

Fonatsion vositalar ikki guruhga bo'linadi: lingvistik (tilshunoslik) va paralingvistik (prosodik).

Lingvistik fonatsiyaga so'zlarni tashkil etuvchi nutq tovushlari, ohanglar, so'z urg'usi va mantiqiy pauzalar kiradi.

Paralingvistik fonatsiyaga ovozning ohang sifati, diapazoni, tembri va kuchi (balandligi), diksiya, ovoz toni, xarakterlovchilar (yoki tildan tashqari fonatsiya), pauza to'ldiruvchilari, til imo-ishoralari, nutq tempi, artikulyatsiya kabi paralingvistik vositalar, tovushlar va intonatsion og'ishlar, ya'ni nutq tovushining individual psixik va fiziologik xususiyati kiradi.

Muomalaga kirishganda, zaharxanda ohangni ajratib olish mushkul emas, yozuvda esa uni *zarda bilan, keskin, zaharxandalik bilan, achchiqlangan ohangda, vahshiylik bilan, qo'pol ohangda* kabi birliklar bilan ifodalash mumkin.

– *Shubhadan uzoqsan, deysiz-u, lekin meni u bilan ko'rganlar bor.*

– ***Bor bo'lsa bordir, – dedi mezbon zarda bilan .***

– *Lekin uning o'zi yo'q. Qo'rqma, ishtoningni ho'l qilgan bo'lsang, almashtirib olgin-u, tinchgina yuraver* (T.Malik, Talvasa, 8-b.).

“*Rotten little boulder too!*” ***he said savagely.*** “*I can tell you, Hastings, it's making life jolly difficult for us. As for Evie – you remember Evie?*” (A.Christie, *The Mysterious Affair at Styles*, p.4)

– “*Chirigan chegarachi ham!*” – ***dedi u vahshiylik bilan.*** – *Xastings, buni sizga aytishim mumkin, bu bizning hayotimizni qiyinlashtirmoqda. Evining ham, Evi esingizdami?*

Fonatsion vositalardan qanchalik unumli va o'rinli foydalanishimiz esa muloqotning qay darajada unumli yoki unumsiz kechishini ta'minlaydi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “Talvasa” va “Staylsdagi sirli voqea” asarlarida sukut orqali ifodalanuvchi ma'nolar” deb nomlanib, sukut orqali ifodalanuvchi ma'nolar va tanlangan asarlardagi uning talqini ochib beriladi.

Sukut saqlash muloqotda o'ziga xos lisoniy belgi vazifasini o'taydi va turli nutqiy harakatlarni ifodalash vositasi bo'la oladi. Muloqotda sukut saqlash maqsadli harakat namunasi hamdir.

Sukut – insonning tug'ilishidan to so'nggi nafasigacha hamroh bo'luvchi universal hodisa. Sukut gapirish kabi tabiiydir, chunki jamiyatning bir bo'lagi bo'lib shakllanar ekanmiz, to'xtamay gapirib yoki to'xtamay sukut saqlay olmaymiz. Bu hodisa barcha xalq va yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishiga bog'liq bo'lmagan holatda universalligi bilan falsafa, teologiya, psixologiya, semiotika, etnografiya, madaniyatshunoslik, tilshunoslik kabi bir qator fanlarning obyekt bo'lib kelmoqda. Bundan kelib chiqib, bugungi kunda sukut fanlararo o'rganiluvchi xususiyatga ega deya olamiz. Ayrim faktlarga qaraganda ilk bor ushbu masalaga etnograflar qiziqish bildirgan.

Tilshunoslarning ushbu hodisaga qiziqishi, birinchi navbatda, tilshunoslikning o'rganilayotgan materialni sezilarli darajada kengaytirish, og'zaki va og'zaki bo'lmagan tarkibiy qismlardan tashkil topgan sof lingvistik aloqadan tashqariga chiqishga harakat qilish kabi umumiy tendensiyasi bilan izohlanadi.

Ayrim tilshunoslarning fikricha, sukut saqlashni kommunikativ va kommunikativ bo‘lmagan sukutga ajratish maqsadga muvofiq. Kommunikativ sukut ostida muloqot aktining noverbal vositalar bilan birga qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan sezilarli darajada uzilishi tushiniladi, kommunikativ bo‘lmagan sukut esa qandaydir ritul sifatida, o‘zida hech qanday funktsiya bildirmaydigan sukut sifatida kuzatiladi.

Sukut aktini tashkil etuvchi harakat turlari uning tuzilishini belgilaydi. S.V.Krestinskiyning fikriga ko‘ra, sukut harakatining tuzilishi 5 darajani o‘z ichiga oladi:

- 1) presuppozitsiya (taxmin) mazmuni;
- 2) propozitsional (taklif) mazmuni;
- 3) implikativ (noaniq) mazmun;
- 4) intrasilensial (ichki sukut) mazmun;
- 5) postsilensial (sukutdan so‘ng) mazmun²⁸.

Sukut suhbatda ko‘p funktsiyalarni bajarishi mumkin. Muloqotda sukut haqida ba‘zi fikrlarni yodda tutish kerak:

1. Suhbat davomida paydo bo‘lgan sukut boshqa odamga bosim o‘tkazishi mumkin.

2. Sukut dushmanlikni ko‘rsatishi mumkin.

3. Sukut kelishmovchilikni ko‘rsatishi mumkin.

4. Sukut his-hayajon yoki qo‘rquv kabi chuqur hislarni ko‘rsatishi mumkin.

5. Sukut hurmatni bildirishi mumkin.

6. Sukut fikrlashni, o‘yga cho‘mishni ko‘rsatishi mumkin.

7. Sukut qasddan qo‘pollik bo‘lishi mumkin.

8. Sukut tushunish muhitini yaratadi.

9. Sukut hamdardlik belgisi bo‘lishi mumkin.

10. Suhbatda sukutni boshqarish hissiy intellektning muhim tarkibiy qismidir²⁹.

Yuqoridagi ma‘lumotlarga tayangan holda, tanlangan asarlarda sukut aks ettirilgan misollardan keltirishga harakat qildik:

Bu gapdan keyin Jasur sapchib turib ketdi. Nazarida qizini zo‘rlash boshlanganday titroq tutdi, gapirmoqchi edi, duduqlanib, so‘zni aytolmadi (T.Malik, Talvasa, 64-b.).

“Don’t ask me to help you, because I won’t. I wouldn’t lift a finger to--to---“ *She falters.* (A.Christie, *The Mysterious Affair at Styles*, p.123).

“Mendan yordam so‘rama, chunki yordam bermayman. Hatto barmog‘imni uchini ham.....” u jim qotdi.

Ushbu misollarda sukut saqlash qo‘rqoqlik, o‘z fikrini aytishga ojizlik qilishni ifodalamoqda.

Sukut akti va og‘zaki nutq akti o‘xshashliklarga ega, bu kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lgan sukut harakatini nutq akti deb hisoblash imkonini beradi.

²⁸ Крестинский С.В. Коммуникативная нагрузка молчания в диалоге. // Личностные аспекты языкового общения: межвуз. сб. науч. тр. Калинин: Калининского ун-та, 1989. – С.92-97.

²⁹ Меликян С.В. Молчание в русском общении. // Русское и финское коммуникативное поведение. – Воронеж, 2000. – С.51.

Oddiy nutq aktining sukutdagi nutq aktidan farqi shundaki, ikkinchisida lugʻaviy shakllar mavjud emas.

Uchinchi bobning uchinchi fasli “Talvasa” va “Staylsdagi sirli voqea” asarlaridagi noverbal vositalarning grafik tasviri” deb nomlanib, ushbu faslda grafik vositalar orqali yozma nutqda ifodalanishi mumkin boʻlgan maʼnolarga urgʻu beriladi.

Grafik vositalarga, yozma nutqda qoʻllaniladigan tinish belgilari (nuqta, vergul, undov, soʻroq belgilari), unli va undosh harflarning qaytarilishi, smayliklar, emojilar, stikerlar (zamonaviy texnologiyalar rivojlangan hozirgi zamon yozma nutqining eng asosiy va tez-tez qoʻllaniladigan, maʼno anglatuvchi belgilari) kiradi. Yozuvda qoʻllanadigan barcha grafik vositalar ogʻzaki nutqdagi fikrlarni qogʻozga tushirishga imkon beradi.

Shuningdek, S.Moshchevaning maqolasiga asoslanib, biz grafik paralingvistik vositalarning quyidagi tasnifini ajratib koʻrsatishimiz mumkin: ideogramma; diagramma; logogramma; grammatogramma³⁰. Bularning aksariyati kundalik hayotimizda bannerlar, reklamalar, telehou va ijtimoiy tarmoqlarda keng qoʻllaniladi.

Ilmiy manbalarda oʻzbek yozuvida tinish belgilarining qoʻllanish davri sifatida XIX asrning ikkinchi yarmi koʻrsatiladi³¹. Oʻzbek punktuatsiyasining shakllanishi va rivojida, ayniqsa, 1871-yilning 28-aprelidan boshlab 1917-yilning boshlarigacha (deyarli 50 yil mobaynida) muntazam ravishda nashr etilgan “Turkiston viloyatining gazetisi” muhim oʻrin tutgan³².

“Talvasa” va “Staylsdagi sirli voqea” asarlarida noverbal vositalarning grafik turiga doir boʻlgan koʻplab misollar aniqlandi. Asarlarda, asosan, tinish belgilarining turli konfiguratsiyalaridan hamda unli va undosh harflarning bir necha bor takrorlanishidan foydalanilgan.

Qoʻrquvni quyidagicha ifodalash mumkin:

– *Nimaga tushunmaysan? – dedi Akula uning yelkasiga turtib. – Oltita yetimni chirqiratib turibsan-ku!*

– *Qan... qanaqasiga? M -- men yetimlarni b-bilmayman (T.Malik “Talvasa”54-b.).*

Ushbu misolda ovoz bilan ifodalanadigan qoʻrquvni yozuvda tasvirlash maqsadida harflarni – kabi chiziqchalar bilan ajratish, undosh tovushlarni takrorlashdan foydalanilgan. Oʻquvchi bu jummalarni oʻqir ekan, xayolan ushbu tovushlarni tasavvur qilib oladi.

His-hayajon:

– *“Musobaqangni pishirib ye!” – Gʻayrat shunday deb jahl bilan oʻrnidan turdi.*

– *“Meni sotishga sotib qoʻyib, endi mehribonchilik qilyapsanmi?” (T.Malik, Talvasa, 22-b.)*

³⁰ Мошчева С.В. Дискурс массмедиа: роль и место графики и графических средств паралингвистики (на материале рекламных текстов). // Перспективы науки и образования. – М., 2013. – Вып.4. – С.232-242.

³¹ Назаров К. Ўзбек пунктуацияси тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б.31.

³² Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Andaniyozova D. Oʻzbek tili meʼyorlari (puntuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr, 2021. – B.16.

“It must be a difficult situation for you all.”

“Difficult! It’s damnable!” (A.Christie, *The Mysterious Affair at Styles*, p.5)

“Barchangiz uchun qiyin vaziyat bo‘lsa kerak”.

“Qiyin! Judayam dahshatli!”

Undov belgisi, ko‘pincha, his-hayajon belgisi deb ham ataladi, shunga muvofiq asar mualliflari his-hayajonli gaplarni undov belgilari orqali ifodalaganlar.

Umumiy qilib aytganda, hayotimizda uchraydigan barcha simvol va belgilar ma’no anglatadi. Ularga misol qilib yuqorida ta’kidlangan yo‘l harakati belgilari, ko‘chalarda uchraydigan *chekmang, telefondan foydalanish taqiqlanadi, video kuzatuv* kabi belgilar, reklama yoki ogohlantiruvchi bannerlarni olishimiz mumkin. Noverbal nutqdagi grafik vositalar hayotimizni yengillashtirish va og‘zaki ma’lumotlarni qog‘ozga tushirish, og‘zaki nutqdagi nozik holatlarni to‘g‘ri tasvirlashga ko‘maklashish uchun xizmat qiladi.

Grafik vositalarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular nutq so‘zlash imkoni bo‘lmagan holatlarda, ya’ni faqatgina yozuv bilan barcha hislarni xoh negativ, xoh pozitiv bo‘lsin, shuningdek, matn ichidagi urg‘u berilishi kerak bo‘lgan fikrlarni ajratib ko‘rsatish, e’tiborni jalb qilish, yozuv orqali esda qolishni ta’minlaydi.

XULOSA

1. Mustaqil O‘zbekistonning jahonning turli xalqlari bilan uzviy hamkorligini ta’minlash, bir qator xalqlarning urf-odatlari, madaniyati o‘rtasidagi umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash, kommunikantlar o‘rtasidagi o‘zaro me’yoriy aloqani, nutqiy muloqotning o‘ziga xos xususiyatlarini puxta o‘rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

2. Har qanday muloqot jarayoni ma’lum millat kishilarining yashash muhiti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘zbek va ingliz xalqlari muloqotlarida diniy-etnik, ijtimoiy-tarixiy hamda global jarayonlarning ta’siri namoyon bo‘ladi. O‘zbek va ingliz xalqlari noverbal vositalari o‘zaro katta farq qiluvchi sharq va g‘arb madaniyati asosida shakllanganligi bois, ularda muayyan o‘xshashliklar bilan birga, qator farqlanuvchi belgilar mavjud. Masalan, sharq va g‘arb ayollarining erkaklar bilan salomlashishi, dasturxon ustida o‘zini tutish kabilarda katta farqlar ko‘zga tashlanadi. Ingliz ayoli erkaklar bilan erkin qo‘l berib yoki hatto yuzidan o‘pib so‘rashishi mumkin bo‘lsa, o‘zbek ayollarida uzoqdan salomlashish yoki yelkadan olish kabi salomlashishni kuzatish mumkin. Shuningdek, inglizlar dasturxon ustida burnini qoqish, taomni yeb bo‘lib o‘rnidan turib ketishlari oddiy hol hisoblansa, o‘zbeklarda bu odobsizlik hisoblanib, ovqatlanib bo‘lgach qo‘llarni duoga ochib, “omin” harakat (jest)ini bajarish o‘ziga xos xususiyatdir.

3. Tilshunoslikda muloqot shakllarining tadqiqi tarixan didaktika va madaniyatshunoslik masalalari doirasida o‘rganilgan. Keyinchalik bu muammolar lisoniy birliklar ishtiroki va ahamiyati orqali tilshunoslik fani doirasida kuzatila boshlandi. Jahon tilshunosligida nolisoniy vositalarning shakllari tadqiq etilishi uzoq davrni o‘z ichiga oladi. Ammo bu tadqiqotlarda noverbal vositalar yoxud paralingvistik vositalar deyarli bir til doirasida o‘rganilgan bo‘lib, boshqa til va

millat vakillari noverbal vositalari bilan qiyosiy tarzda olib borilgan maxsus tadqiqot ishlari yetarlicha mavjud emas.

4. Noverbal vositalarni o'rganish muloqotni o'zaro hamda boshqa xalqlararo pozitiv kechishini ta'minlaydi, ularni qiyosiy o'rganish esa noxushliklarning oldini olishi mumkin. Noverbal vositalar har qanday xalq muloqotining ajralmas qismidir. Noverbal vositalar tilga yondosh bo'lib, verbal muloqotda har doim aks etadi va unga bo'yoqdorlik, qo'shimcha ma'no yuklaydi. Noverbal muloqot verbal muloqotsiz yashay olsa-da, verbal muloqotni noverbal vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

5. O'zbeklar muloqot jarayonida qo'llaniluvchi nolisoniy vositalar, asosan, sharq madaniyati ta'sirida, inglizlar muloqot jarayonida qo'llaniluvchi nolisoniy vositalar esa g'arb madaniyati ta'sirida shakllangan. Har ikki xalq nolisoniy vositalarini o'zaro qiyoslab o'rganish shu xalqlar tilshunosligi uchun ham ma'lum samara beradi.

6. O'zbek va ingliz noverbal vositalarining kinetik, fonatsion va grafik turlari o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali yoritiladi. Tohir Malikning "Talvasa" hamda Agata Kristining "Staylsdagi sirli voqea" ("The Mysterious Affair at Styles") asarlari misolida yoritildi.

7. O'zbek va ingliz xalqlarining noverbal vositalari shu xalqlarning milliy-madaniy belgilarini namoyon etishda, tilning amaliy jihatlarini yoritishda katta ahamiyatga ega. Verbal va noverbal muloqot vositalari o'zaro mutanosib bo'lishi, o'zaro bir birini to'ldirishi lozim. So'zlar, so'z birikmalarining yasalishi, mimika, jest (xatti-harakat)lar, poza (sumbat) va xatti harakatlar bilan uyg'unligini ta'minlash muloqotning muvaffaqiyatli kechishi omilidir.

8. Tohir Malikning "Talvasa" hamda Agata Kristining "Staylsdagi sirli voqea" ("The Mysterious Affair at Styles") asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat noverbal vositalar o'zbek va ingliz xalqlari uchun universal hisoblanib, semantik jihatdan katta farqliklar aniqlanmadi. Lekin o'ziga xos makro va mikro jestlar, sharq va g'arb ayollarining ovoz tonlaridagi farqli xususiyatlar, shuningdek, muloqot paytidagi distansiya saqlashdagi kabi farqlar aniqlandi.

9. Noverbal vositalarning fonatsion turidan unumli foydalanish ko'plab kasb egalarini asosiy muvaffaqiyatga eltuvchi yo'l hisoblanadi. Fonatsion turiga ovoz tembri, balandligi, kuychanligi, past va balandligi, tez yoki sekinligi kabilar kirar ekan, turli xalqlarda ularning me'yori ham farq qilishi aniqlandi. Amerikalik ingliz o'zbekka nisbatan balandroq va tezroq gapirsa, angliyalik ingliz o'zbek bilan bir xil balandlikda gapirishi mumkin.

10. Noverbal vositalarning grafik turlari, asosan, vaqtni tejash, turli yoshdagilarga birday tushunarli bo'lish, gapni ixchamlashtirish, gapga ekspressivlik qo'shish kabi vosita sifatida xizmat qiladi. Noverbal vositalarning grafik turlaridan, asosan, reklamalarda unumli foydalanishadi. Shuningdek, yo'l harakati qoidalarining ajralmas qismi hisoblanadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING
SCIENTIFIC DEGREES DSc03/30.12.2019.Phil.05.02 AT
FERGANA STATE UNIVERSITY**

FERGANA STATE UNIVERSITY

SOBIROVA NARGIZA NUMONJONOVNA

**NATIONAL-CULTURAL FEATURES OF NON-VERBAL MEANS IN
UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES
(in examples of Tahir Malik's "Talvasa" and Agatha Christie's "The
mysterious affair at styles")**

**10.00.06 – Comparative Study of Literature, Comparative Linguistics
and Translation studies (philological sciences)**

**DISSERTATION
ABSTRACT for the doctor of philosophy scientific degree (PhD) in PHILOLOGICAL
sciences**

Fergana – 2026

The theme of doctoral (PhD) dissertation is registered by the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № B2021.1.PhD/Fil1680.

The dissertation was performed at Fergana State University.

The abstract of dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (resume)) has been uploaded on the website (www.fdu.uz) of Scientific Council and on the website of «Ziyonet» information-educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:

Ibragimova Extiyotxon Ismailovna
Doctor of Philology (DSc), associate professor

Official opponents:

Ganiyeva Dildoraxon Azizovna
Doctor of Philology (DSc), professor

Saidxonov Ma'murjon Muhammedovich
Doctor of Philology (DSc), professor

Leading organization:


Samarkand state institute of foreign languages


Defense of the dissertation will take place on "22" 01 2026, at 11:00 at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Fergana State University (Address: 105, B.Marginaniy Street, Fergana, 100151. Tel: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).


The dissertation is available in the Information Resource center of Fergana State University (registered under № 677). Address: 19, Murabbiylar Str., Fergana, 100151. Tel: (+99873) 244-71-28.


The abstract of the dissertation is distributed on "5" 01 2026.

(Mailing report № 4 dated "5" 01 2026).




G.Z. Rozikova
Chairperson of the Doctor's Degree
awarding Scientific Council, Doctor of
Philology, Professor


M.T. Abdupattoyev
Scientific secretary of the Scientific
Council awarding scientific degrees,
Doctor of Philology, Professor


A.G. Sabirdinov
Chairperson of the Scientific Seminar at
the Doctor's Degree awarding Scientific
Council, Doctor of Philology, Professor

INTRODUCTION (abstract of the doctoral (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In world linguistics, since the second half of the last century, the increased attention to semantics and an anthropocentric approach to linguistic facts has led to the rapid development of new areas in linguistics, such as linguoculturology, psycholinguistics, axiolinguistics, biolinguistics, neurolinguistics, areal linguistics, in particular paralinguistics. The study of nonverbal communication and its means in linguistics is very important, because language does not consist only of words, but also meaning is expressed through gestures, facial expressions, intonation and body language. According to the analysis of research and studies conducted in recent years, paralinguistics remains one of the areas that has attracted the attention of linguists with its important issues and problems. In the current period of rapid development, the analysis of the national and cultural characteristics of nonverbal means in English and Uzbek is of particular practical importance.

In world linguistics, there are many issues that have the object of study of this field. In particular, one of such studies and research is non-verbal communication and its means in different languages. In recent years, world linguistics has been interested in studying the interaction between people, speech relations characteristic of different peoples, their common and specific aspects, similarities and differences, national-cultural and general linguistic features of communication and interaction. As a result of this interest, a number of scientific studies have emerged on issues related to non-verbal speech, its units, and non-linguistic speech situations. The results of these studies are of theoretical importance in the development of such disciplines of linguistics as paralinguistics, psycholinguistics, and psychology, which studies non-verbal means.

In the current rapidly changing era, there is a great need to fundamentally study the cultures of different peoples and bring the oriental cultural features of Uzbek culture to the world arena. The Decree “On measures to radically increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language”¹ After all, the issue of determining the international role and influence of the state language, the prospects for its relations with other languages, is of great importance. Today, the fact that independent Uzbekistan is cooperating with many countries of the world, including English-speaking countries, creates the need for in-depth and comparative study of the national characteristics of the Uzbek people and representatives of other nationalities. Therefore, the comparative study of non-verbal speech and its means of the Uzbek and English peoples living far from each other is extremely important, as it can pave the way for ensuring close cooperation. Accordingly, a more precise understanding of the speech communication of the Uzbek and English peoples belonging to different systems and a comparative study of the non-verbal means that enhance its colorfulness are of great theoretical and practical importance today.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони / Халқ сўзи, 2019, 22 октябрь, №218 (7448).

This dissertation will serve to a certain extent in improving the mechanisms for implementing the tasks set out in legal and regulatory documents as Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-5847 dated October 8, 2019 “On approval of the Concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030”, No. PD-6084 dated October 20, 2020 “On measures for the further development of the Uzbek language and improvement of language policy in our country”, No. PD-6108 dated November 6, 2020 “On measures for the development of the spheres of education and science in the new period of development of Uzbekistan”, No. PD-60 dated January 28, 2022 “On the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026”, Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PR-5117 dated May 19, 2021 “On measures to bring the popularization of foreign language learning in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level”, Resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 701 dated August 21, 2019 “On measures to further improve the teaching of foreign languages in general secondary educational institutions”, No. 312 dated May 19, 2021 “On measures to effectively organize the popularization of foreign language learning” and other relevant resolutions.

Compliance of the research with the priorities of the republic's science and technology development. The dissertation was completed in accordance with the priority direction of the republic's science and technology development: I “Formation of a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information society and a democratic state.”

The degree of study of the problem. In world linguistics, scientists such as A.Hill, A.Pease, V.Birkenbil, D.Crystal, A.Mehrabian, N.Ethier, J.Liscombe, N.Gerard, H.Calero, G.Trager, G.Bombelli, L.Soler, R.Carter, V.Nash, L.Brosnahan, G.Kolshansky, G.Kreidlin, Z.Chanesheva, O.Akhmanova, I.Gorelov, S.Stepanov, V.Labunskaya, L.Rabdanova, O.Popchuk² have carried out a number

